

**ISLOM-TINCHLIK VA EZGULIK DINI**

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

DINSHUNOSLIK YO'NALISHI 3-KURS TALABASI

BOTIRALIYEVA GULSANAM

Kalit so'zlar: *Islom , ezgulik, tinchlik, Qur'on, bag'rikenglik, salomatlik, iymon, bo'ysunish*

Annotatsiya: *Islom dini – bu insoniyatni tinchlik, adolat, va ezgulik yo'liga chaqiradigan birinchi diniy tizimlardan biridir. Islomning asosiy qadriyatlari insonlarning o'rtasida tinchlikni saqlash, ularni ezgulik va rahm-shafqat bilan to'ldirishga qaratilgan. Qur'on va Hadislar, Islomni hayotga tatbiq etishning yagona yo'li sifatida tinchlik va ezgulikni ulug'laydi.*

Hammamiz bilamizki, islom dini barcha dinlar ichida eng yosh din va e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra xristianlikdan keying ikkinchi o'rinda. Bugungi kunda e'tiqod qiluvchilar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Islomning paydo bo'lishi VI asr oxiri - VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bilan bevosita bog'liqdir. Islom arab tilida “taslim bo'lish”, xususan, Alloh yagona degan e'tiqod bilan unga bo'ysunmoqlik, itoat etmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e'tiqodga imon keltirmoqlik demakdir. Qur'onda: *»Sizni bir-biringizni tanib olish uchun xalqlar va qabilalar qilibqo'ydik» (Al-Hujurat, 13)* deyilganidek, Islom insonga o'zaro hurmat, tinchlik va ahillikni o'rgatadi. Yaratgan Alloh, insonlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish, boshqalarga yaxshi muomala qilish va jismoniy hamda ruhiy tinchlikni o'rnatish uchun yagona yo'lni ko'rsatgan. Baqara surasida:

الشَّيْطَانُ خُطَوَاتٍ تَتَّبِعُوا وَلَا كَافَّةً السَّلَامِ فِي ادْخُلُوا آمَنُوا الَّذِينَ أَيُّهَا يَا

“Ey, iymon keltirganlar! Islomga to'lig'icha kiring. Va shaytonni izidan ergashmang”, - deb marhamat qiladi.



“Islomga to’lig’icha kiring” iborasini ba’zi ulamolarimiz “tinchlik va salomatlik yo’liga to’liq kiring deb tafsir qilishgan. Chunki oyatda bu ibora “silm” so’zi bilan ifodalangan. U esa, “tinchlik va salomatlik ma’nolarini ham beradi. Demak ma’no “Islom buyurgan tinchlikka kiring” desak yanada mukammal bo’ladi. Bu tinchlik va xotirjamlik tushunchasi – boshqalar tushunadigan juz’iy tinchlikdan farq qiladi. Oyatda aytilgan haqiqiy salomatlik va tinchlikka erishish uchun inson bu jarayonni, avvalo jamiyatning va oilaning bir bo’lagi sifatida o’zidan boshlashi kerak. Ha, avvalo o’z vijdoni oldida pok bo’lishi kerak. Shundagina turli asabiylashishlardan, uning natijasida keladigan turli kasalliklardan salomat bo’ladi. Vijdoni va iymoni oldida pok inson boshqalar oldidagi o’z vazifasini qoyillatib bajaradi. Natijada esa ota-ona, oilasi va farzandlari undan mamnun bo’lishadi. O’z atrofida gilar undan rozi va xursand bo’lishlari insonga yanada tinchlik va xotirjamlik baxsh etadi va atrof muhitda ham tinchlik yoyilishiga sabab bo’ladi. Chunki musulmon inson Alloh taolo uning har bir ishini kuzatib turganini biladi. Shunga ko’ra birovning huquqini poymol qilmaydi, boshqalarga zulm qilmaydi, xiyonatu razolatdan uzoq bo’ladi. Unga biror yomonlik yetsa - garchi uning sababini o’rganib undan ibrat olishga harakat qilsa ham – Allohni eslaydi va U zotga tavakkal qilib o’z ishini davom ettiraveradi. Tinchlikni ulug’ ne’mat ,deb e’lon qilgan islom dinida bu yo’lda nafaqat amal,balki so’z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan . Payg’ambar s.a.v hadislarda “Musulmon kishi shuki,uning tilidan va qo’lidan musulmonlar ozor chekmaydilar!”deyiladi.Zero,so’z ya’ni tildan yetadigan ozor qo’ldan yetadigan zarardan avval zikr etilishiga sabab,qo’l bilan boshqalarning faqat bu dunyosi-salomatligi ,oilasi,mulkiga zarar yetkazish,til bilan insonlarni turli buzg’unchi g’oyalarga targ’ib qilish,kishilarni to’g’ri yo’ldan chalg’itish orqali ikki dunyosini barbod etish mumkin. Bu din nafaqat musulmonlarga, balki, boshqa din vakillariga, hatto boshqa dinlarni ham inkor etuvchi shaxslarga nisbatan shirinsuxanlik bilan chiroyli muomala qilishga undaydi. Muso va Horun alayhimassalomga o’zini Xudoman, deb da’vo qilgan Fir’avnga ham Alloh taolo yumshoq va muloyim so’z bilan gapirishga buyurdi: “(Ey, Muso!) Sen o’zing va birodaring (Horun) Mening oyatlarimni (odamlarga) olib boringiz va Meni zikr



qilishda sustlik qilmangiz! Ikkingiz Fir'avnning oldiga boringiz, chunki u (“Men – Xudoman”), deb haddidan oshdi. Bas, unga yumshoq so‘z aytingiz! Shoyad, u eslatma olsa yoki (halok qilishimdan) qo‘rqsa” (Toho surasi, 44-oyat). Bugun ko‘pchilik o‘ylaganidek, Islom qo‘poruvchilik dini emas, balki tinchlik dinidir. Dinimiz tinchlik, xotirjamlik, huzur-halovat, sulh va omonlik kabi ma'nolarni anglatadi. Bu nomni Alloh taoloning O‘zi tanlagan. Zotan, Buyuk Robbimizning go‘zal ismlaridan biri ham “As-salom”dir. Asli “terror” atamasi paydo bo‘lganiga chorak asrdan oshdi. Terror dastidan ming-minglab begunoh odamlar halok bo‘lmoqda, millionlab zamindoshlarimiz o‘z uyidan, vatanidan chiqishga majbur bo‘lib, sarson sargardon yuribdi. Minglab bolalar ta'lim olish u yoqda tursin, uysiz boshpanasiz, ba'zilar hatto yaqinlarisiz yolg‘izlikda, nochor hayot kechirmoqda. Bu esa terrorism, ekstremizmning achchiq mevasidir. Vaholanki, Islom terrorni, fasod va buzg‘unchilikni butunlay qoralaydi, la'natlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, muqaddas dinimiz insonni avvalo shaxsiy tinchlikka, keyin esa boshqalar bilan tinch-totuv yashashga erishtiradigan buyuk din. Bu dinda tinchlik – asosiy qoida hisoblanib, zarurat hollardagina undan chiqiladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, dinimizga turli tuhmat toshlari yog‘dirilishi achinarli hol. Islom dini insonlarni ezgu ishlar qilishga, o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zishga va tinch-totuv yashashga undaydi. Diniy bag‘rikenglik, adolat, mehr-oqibat va sabr kabi qadriyatlar islomning negizini tashkil etadi. Shu bois islom – tinchlik va ezgulik dini bo‘lib, u insonlarni yanada yaxshilik qilishga, dunyoni tinchroq va yanada adolatli qilishga chorlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Jaholatga qarshi ma’rifat: O’quv qo’llanma/Toshkent,” O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019.-212b.
2. “Tafsiri hilol” Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf
3. Hadis to’plamlari
4. <https://uza.uz> “Islom –tinchlik va ezgulik dini